

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>I.I.Rustamova</b>	
Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida detallar funksiyasi va dinamikasi .....	770
<b>G.H.Oxunova</b>	
Badiiy obraz borliqni anglash omili sifatida (Isajon Sulton hikoyalari misolida) .....	773
<b>G.M.Oripova, F.A.Rahmataliyeva</b>	
Xokku she'riy janrida inson va tabiat tasviri .....	778
<b>G.Muhammadjonova</b>	
Erkin Vohidovning hajviy asarlarida davr muammolari .....	782
<b>Sh.D.Maxmidjonov</b>	
Badiiy nutq tiplari va qahramon ruhiy olami talqini (Tohir Malikning asarlari misolida) .....	787
<b>M.M.Xamidov</b>	
O'zbek adabiyotida tarixiy obraz va uning ifoda usuli .....	791
<b>O.A.Ahmadjonova, Sh.D.Ma'murova</b>	
Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida til o'rganish masalasi va milliy til qadri .....	795
<b>X.A.Abdulxamidova</b>	
Isajon Sulton romanlarida inson xronotop sifatida .....	799
<b>J.B.Sayidolimov</b>	
"Makorim ul-axloq" agiografik asar namunasi .....	803
<b>G.M.Oripova, G.G'.Axmadaliyeva</b>	
Said Ahmadning hikoyanavislik mahorati ("Qorako'z majnun" hikoyasi misolida) .....	808
<b>I.S.Mannopov, B.D.Rajavaliyev</b>	
"Devoni hikmat"da ishq va oshiqlik talqini .....	812
<b>S.F.Komilova</b>	
Xalq dostonlarida do'stlik obrazi talqini .....	817
<b>O.A.Ahmadjonova</b>	
Asqad Muxtorning ayollar psixologiyasini yoritishda uslubiy o'ziga xosligi .....	820
<b>A.A.Abduraxmonov</b>	
O'zbek lirikasida nurning poetik funksiyasi .....	824
<b>X.A.Abdulxamidova, G.Sh.Shodiyeva</b>	
"Kutilgan kun" hikoyasida badiiy psixologizm .....	828

#### TILSHUNOSLIK

<b>S.N.Fazildinova</b>	
"Farhod va Shirin" dostoni nasriy bayonidagi tasvir vositalarning ifodalanishi .....	831
<b>N.K.Ergasheva</b>	
Goals and objectives of the training practice .....	835
<b>O.A.Axmedova</b>	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tili terminalogiyasini o'qitishning nazariy asoslari .....	838
<b>Sh.B.Karimova</b>	
O'zbek tilida kvantitativlikning lug'aviy ifodasi .....	841
<b>A.U.Akhmedova</b>	
Challenges of using only traditional methods in teaching foreign languages .....	844
<b>A.U.Akhmedova</b>	
The effects of contemporary teaching methods in teaching foreign languages .....	850
<b>D.Ganieva, F.Khamidov</b>	
The comparative analysis of internet discourse in Uzbek, Russian and English languages .....	855
<b>Ш.Аскарова</b>	
Сущность языковой интерференции при изучении Немецкого языка .....	859
<b>S.Kh.Azimova</b>	
The stages of development of the theory of intercultural pragmatics in linguistics .....	863
<b>E.B.Yagyaeva</b>	
Talabalar mustaqil ta'limining mohiyati, tuzilmasi va vazifasi .....	867
<b>E.B.Yagyaeva</b>	
Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar .....	870



UO'K. 8. 811. 111.

**NOFILOLOGIK OLIY O'QUV YURLARIDA INGLIZ TILI TERMINOLOGIYASINI O'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI.****ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ****THEORETICAL FOUNDATIONS OF TEACHING ENGLISH TERMINOLOGY IN NON-PHILOLOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS.****Axmedova Odinaxon Abdullajon qizi**

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Hozirgi tez sur'atlarda rivojlanyotgan davrda, ingliz tili dunyoning asosiy muloqot tili hisoblanadi. Ingliz tilining o'zbek tiliga ta'siri juda katta va uni asosan fan, sanoat, texnologiya va ijtimoiy hayotning turli sohalarida ko'rish mumkin. Ko'p hollarda biz o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, ingliz tilidagi atama va terminlarning ekvivalentini topishga harakat qilamiz. Biroq, xalqaro atamalar, terminlar yoki xalqaro so'zlar uchun shunday atamalar mavjud bo'lsa, ular ingliz va o'zbek tillarida bir xil shaklda hech qanday o'zgarishsiz qo'llaniladi.

Ushbu maqolada terminologiyaning qanchalik ahamiyatga ega ekanligi va u har bir sohada muhim sanalishi olimlar tomonidan berilgan keng qamrovli fikrlar, qarashlar va mulohazalar bilan o'rganilib chiqilgan. Shuningdek nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tili terminologiyasini soha terminlariga bog'lagan holda o'qitishning nazariy asoslari, qiyinchiliklari va muhim bo'lgan taraflari yoritib berilgan.

**Аннотация**

В современную быстро развивающуюся эпоху английский язык является основным языком общения в мире. Влияние английского языка на узбекский язык очень велико и проявляется главным образом в различных областях науки, промышленности, техники и общественной жизни. Во многих случаях мы пытаемся найти эквивалент терминов и терминов на английском языке, исходя из внутренних возможностей узбекского языка. Однако существуют термины международных терминов, термины или международные слова, которые используются в одинаковой форме в английском и узбекском языках без каких-либо изменений.

В этой статье важность терминологии и ее значение в каждой области были изучены с использованием всесторонних мнений, взглядов и мнений, высказанных учеными. Также выделены теоретические основы, трудности и важные аспекты преподавания в нефилологических вузах путем соединения терминологии английского языка с терминами предметной области.

**Abstract**

In today's rapidly developing era, English is the main communication language of the world. The influence of the English language on the Uzbek language is very large and it can be seen mainly in various fields of science, industry, technology and social life. In many cases, we try to find the equivalent of terms and terms in English based on the internal capabilities of the Uzbek language. However, there are terms for international terms, terms or international words that are used in the same form in English and Uzbek without any changes.

In this article, the importance of terminology and its importance in every field have been studied with comprehensive opinions, views and opinions given by scientists. Also, the theoretical bases, difficulties and important aspects of teaching in non-philological higher educational institutions by connecting the terminology of the English language to the terms of the field are highlighted.

**Kalit so'zlar:** Terminologiya, texnika, termin, atama, sanoat, terminologik lug'at, interfaol usul.**Ключевые слова:** Терминология, методика, термин, отрасль, терминологический словарь, интерактивный метод.**Key words:** Terminology, technique, term, industry, terminological dictionary, interactive method.**KIRISH**

Bugungi globallashtirilgan zamonda, madaniyatlar va davlatlararo kasbiy muloqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro munosabatlarning tez suratlarda rivojlanayotganligini siyosat, iqtisod, fan, texnika va sanoat sohalarida chet elliklar bilan hamkorlik olib borishda yaqqol sezishimiz mumkin. Ilm-fanga doir aloqalar ham shular jumlasidandir. Dunyo ilm-fan bilan shug'ullanadigan



**TILSHUNOSLIK**

olimlarning orasida ilmiy hamkorliklarning ko'payib borayotgani ilmiy terminlarni mukammal tushunadigan, bir tildan ikkinchi tilga hech qanday qiyinchiliklarsiz tarjima qiladigan yetuk kadrlarlarni talab qiladi. Shunday ekan, o'z sohasini mukammal egallash, soha tilini aks ettiruvchi so'zlar va terminlarni o'rganish muhim sanaladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Terminologiyani o'rganishning dastlabki motivatsiyasi texnologiya motivi kabi o'z-o'zidan paydo bo'lgan va fanning paydo bo'lishining motivi kabi nazariy edi. XVIII - asrda texnologiya va kommunikatsiyalarning bir vaqtda sezilarli darajada rivojlanishi natijasida, ushbu o'sish davrida terminologiya ko'plab rivojlanishlar bilan bir qatorda ba'zi qiyinchiliklarni yengish uchun zarur vosita sifatida qaraldi. Faqat XX - asrda atamashunoslik ilmiy yo'nalishga ega bo'lib, ayni paytda ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sifatida tan olindi". [1]

V.P. Danilenkoning qarashlariga ko'ra, jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday jarayonning in'ikosi dastavval terminologiyada o'z ifodasini topadi yoki muayyan terminlarning transformatsion o'zgarishi oqibatida voqelanadi. [2]

X. Xyuellning qayd etishiga ko'ra, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo'llanadigan so'zlar yig'indisidir. Biz terminlar ma'nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz. [3]

S.V.Shvetsova tadqiqotlari mobaynida ingliz terminlarining yasash usullari va qo'llanilish chastotasi nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Eng ko'p tarqalgan usullardan biri sifatida suffikslar yordamida termin yasashning morfologik usuli faol ekanligini qayd qiladi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da, termin to'g'risida shunday yozilgan: "Termin - (lotincha terminus - chek-chegara). Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi". [4]

S.V. Grinev-Grinevich "Termin - bu tushunchalarni aniq nomlash uchun ishlatiladigan nominativ maxsus leksik birlik (so'z yoki ibora)". [5]

V.M. Leychik terminga quydagicha ta'rif qiladi. "Ma'lum bir maxsus bilim yoki faoliyat sohasi nazariyasining konkret yoki mavhum tushunchasini bildiruvchi maxsus maqsadlar uchun ma'lum bir tilning leksik birligi". [6]

Tarjimashunos olim V.N. Komissarov esa terminlarni "Fan yoki texnikaning ma'lum bir sohasidagi mutaxassislar tomonidan qo'llaniladigan aniq obyektlar va tushunchalarni bildiruvchi so'z va iboralar", deb ataydi. [7]

Olimlarning fikrlaridan kelib chiqib ayta olamizki, terminlar ma'lum sohaga xos bo'lgan so'zlarni ifodalash uchun qo'llaniladigan maxsus terminologik birliklardir. Bundan kelib chiqadiki, Termin – bu ma'lum bir maqsadda ilmiy, texnikaviy va sanoat sohalaridagi so'z va iboralarni aniq va ravshan ifodalash uchun qo'llaniladi, – degan tushunchani to'g'ri deya olamiz.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Hozirgi rivojlangan davrda, barcha sohalar qatori terminologiya sohasi ham har bir kasb vakillari uchun muhim o'rin tutadi. Fan, texnika va sanoat sohasida samarali ish olib borishi yosh mutaxassis uchun terminlar mohiyatini to'g'ri tushunishi va undan to'g'ri foydalanishi zarur.

Bugungi kunda mamlakatimiz sanoat tizimlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangicha usullarda kirib kelayotgan xalqaro terminlar oqimini tezlashishi soha egalarining yetarli bilimga ega bo'lishligini mutaxassisligiga oid bo'lgan terminlarning asl mohiyati va mazmunini chet tilida bilishlarini taqazo qiladi.

Kasbiy nutq ko'nikmalarini shakllantirishning dastlabki bosqichida, kelajak mutaxassislari o'z sohasidagi atamalarni ingliz tilidagi ma'nolari bilan tanishishtirish va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va boshqa jihatlarini o'quv jarayonida tushuntirish, terminologik lug'atlaridan foydalanishda o'z sohalaridagi atamalarning asosiy xususiyatlarini o'rgatish muhim omil sanaladi. Ta'lim jarayonida, atamalarni to'g'ri talaffuz qilishda va yod olishda bir qancha qiyinchiliklar va chalkashliklarga duch kelish tabiiy holdir. Bunday vaziyatlarda interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini oshirib sohaga oid atamalarning talaffuzini bilish, amaliy qo'llash, to'g'ri tushunish, tahlil qilish va mustahkamlash imkonini yanada yaxshilab beradi.

**XULOSA**

Yuqorida keltirilganlarni hisobga olgan holda ayta olamizki, sohaviy terminlarni ilmiy muloqot jarayonida unumli foydalana olish, sohaga doir ilmiy matnlardagi terminlarni tarjima qilish,

yoki muqobil variantlarni qo'llay olishni o'rgatish chet tili o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biridir. Hozirgi tez jadallashayotgan davrda, chet tili o'qitishning o'quv darsliklari, mashg'ulot tizimlari, o'quv vositalari hamda o'quv jarayonida ham yangiliklar kirib kelmoqda. Shuning uchun o'quv metodik hamda soha terminlarni tizimlashtirish va ularni amaliyotga tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir. O'quv metodik terminlari va soha terminlarini tizimlashtirilib, chet tillar o'qitish metodikasining bir yo'nalishi sifatida qabul qilinsa barcha uchun manfaatli bo'lar edi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alain Rey *Essay on Terminology*, 1995, John Benjamins Publishing Co. The Netherlands, Amsterdam.
2. Даниленко В.П. Об основных лингвистических требованиях к стандартизируемым терминам//Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики.- М.: МГУ,1971
3. Whewell W. *The philosophy of the inductive sciences founded upon their history*. Vo. I-II. - London, 1967
4. Хojiyev A. *O'zbek tilining izohli lug'ati*, 1981 y.
5. Гринев-Гриневич С.В. *Терминоведение: Учеб.пособие для высш.учеб. заведений*. // М.: Издат.центр «Академия», 2008. 304 с.
6. Лейчик В.М. Термины-синонимы, дублиеты, эквиваленты, варианты Актуальные проблемы лексикологии и словообразования. // Н., 1973. 413 с.
7. Комиссаров В.Н. *Теория перевода (лингвистические аспекты)*. // М.: Высшая школа, 2001. 253 с.